

Ўзбек
филологиясида
матншунослик ва
манбашунослик
муаммолари

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ
ВАЗИРЛИГИ**

НАМАНГАН ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

**БУЮК ШОИР ВА МУТАФАККИР АЛИШЕР НАВОЙ
ТАВАЛЛУДИНИНГ 580 ЙИЛЛИГИГА БАҒИШЛАНГАН**

**“ЎЗБЕК ФИЛОЛОГИЯСИДА МАТНШУНОСЛИК ВА
МАНБАШУНОСЛИК МУАММОЛАРИ”
МАВЗУСИДАГИ**

**ХАЛҚАРО ИЛМИЙ-АМАЛИЙ АНЖУМАН
МАТЕРИАЛЛАРИ
(2021 йил 19-20 май)**

1-китоб

Наманган - 2021

masalalarini ifoda etgan.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning "qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 2017 yil 24 maydagi PQ-2995-sonli Farmoni // www.lex.uz.
2. Alisher Navoiy. Mahbubul-qulub. Buxoro san'at muzayi xazinasidagi 27780 – raqamli qo'lyozma. – 121 v.
3. Muhammad G'iyosiddin. G'iyos-ul-lug'ot. Iborat az se child. Childi 2. Dushanbe: Adib, 1988. 416 sah.
4. Navoiy asarlari lug'ati. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1972. 328 b.
5. Navoiy A. Asarlar. 15 tomlik, 13-tom. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1966. 244 b.
6. Navoiy A. Mahbubul-qulub. Toshkent: G'afur G'ulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti, 1983. – 112 b.
7. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20-jildlik, 1-jild, Toshkent: Fan, 1987. – 723 b.
8. Navoiy A. Mukammal asarlar to'plami. 20-jildlik, 14-jild, Toshkent: Fan, 1998. – 304 b.
9. Navoiy A. Mahbubul-qulub. Qiyosiy matn. – M. –L. Izd. AN SSSR, 1948. – 174 str.
10. Qurbonov A. Tasviriy vositalar va matn mukammalligi. // O'zbek tili va adabiyoti. – 2017. 5-son, 62-68-b.

ALISHER NAVOIY TARJE`BANDLARIDA MAY TALQINI

Nazora BEKOVA,

BuxDU dotsenti, filologiya fanlari nomzodi,

Shahlo HALIMOVA,

BuxDU magistranti

Sharq xalqlari tafakkuri tarixiga chuqur ildiz otgan tasavvuf ta'limotini yaxshi bilmay turib Navoiy badiiyatini, dunyoqarashi va adabiy me'rosini barcha murakkabliklari falsafiy teranligi bilan to'liq holda to'g'ri, haqqoniy yoritib berish mushkul. Navoiy me'rosi yaxlit bir adabiy borliq, bebaaho ma'naviy xazina va yana muhimi shundaki, shoirning o'lmas, hayotbaxsh g'oyalari dunyoviy asarlarida qanday porlab tursa, biz bir chekkaga olib qo'ymoqchi bo'lgan ilohiy asarlarga ham shunday kuch bilinib, nur taratib turadi. Zotan, ular zohiriyl jihatdan shunday, aslida esa, botiniy ma'nolari mohiyatiga ko'ra bir xil falsafiy-

tasavvufiy qarashlar silsilasiga borib taqaladigan o`zaro uzviy aloqador asarlar bo`lib birini ikkinchisisiz tushunish qiyin. Mir Alisher ijodida zulma`naynlik hodisasi-zohiriy va botiniy ma`nolar uyg`unlashuvi yetakchilik qiladi. Shoir g`azallarining zohiriy ma`nolari zamirida yuksak botiniy g`oyalar yashiringan bo`lsa, tarje`bandlarining zamirida ham botiniy tafakkur , urfoniy falsafa yashirinligi kuzatiladi.

Ma`lumki, ramziy-ma`rifiy asarlardagi timsollar asarni tahlil qilishda “kalit”, “ochqich” vazifasini o`taydi. Agar biz mana shu ramzlarning tub mohiyatiga yetsak, muallifning aytmoqchi bo`lgan fikrini darrov bilib olamiz.

Navoiyning “Favoyid ul-kibar” va “ G`aroyib us-sig`ar” devonlari tarkibidagi tarje`bandlarda ham bir qator shunday timsollar qo`llanganki, ularni tahlil etish orqali shoirning sir-asrорidan xabardor bo`lamiz. Tarje`bandlarni o`qir ekanmiz, unda ko`proq may va uning kuchi, xususiyatlari, ta`riflariga duch kelamiz.

Yana mug` dayriga kirdim sarmast,
May tut, ey mug`bachayi bodaparast. [Навоий, 1988:459]

Xo`sh, baytda qo`llangan “mug` dayri”, “may”, “mug`bacha”, “bodaparast” so`zlaridan murod ne?

O`z-o`zidan ayonki, Navoiy zikr etgan may biz tasavvur etgan yoxud bilgan ichimlik emas. Shoir buni aslo nazarda tutmagan. Bil`aks, o`ta taqvodor va pokdomon bo`lgan Navoiy zamonasining ishratparast, mayxo`r kishilarini qahr-u g`azab bilan tanqid ostiga olib, sharobni “ummul xabois” , ya`ni barcha yomonliklar, “falokatlar onasi”, - deb e`lon qilgan. “Hayrat ul-abror” dostonida bo`lsa, badmastlarning masxarali hajviy qiyofasini yaratib, ularni elga sharmanda etgan. Misrada shoir mayni ilohiy ishq-ma`rifat, donish ishtiyoqining avji qiyomi, yor jamoli mushohadasidan oshiq dilida paydo bo`lgan kuchli zavq – ilhomning, behad xursandchilikning, sururning ramziy ifodasi sifatida tilga olgan. Ya`ni lirik qahramon “mug` dayri” – ma`naviy poklanish maskaniga qadam qo`ygan. Oshiq mayga berilgan mug`bachadan, ya`ni sodiq murid, chin oshiqdan mayni ulationini so`raydi.

Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” tarkibidagi “Favoyid us-sig`ar” devonida keltirilgan tarje`bandning boshlang`ich baytlari orqali ham mayning urfoniy mazmuniga urg`u bergenligiga guvoh bo`lishimiz mumkin.

Ketur soqiy, ul mayki subhi alast,
Aning nash`asidin ko`ngul erdi mast.
Mayekim qilur, qo`ysalar jom aro,
O`zi mast-u kayfiyati mayparast.

Ma`rifiy adabiyot sirdan qaralganda mayni ulug`lovchi va mayxo`rlikni targ`ib etuvchi adabiyotdir. Lekin undagi may va mayparastlik doirasidagi barcha tushunchalar mutlaqo ko`chma ma`noga ega.

Navoiyning ta'kidicha, may kishini g`amdan xalos etuvchi asosiy kuch. Zотан, may-shodlik timsoli ekan, u g`amning aksi-dushmanidir. Shuning uchun ham uning lirik qahramoni g`amdan qutulishning birdan-bir yo`li sifatida may ichishni tushunadi. Masalan:

Ketur, soqiyo mujdayi jomidin
Ki pajmurda bo`lmishmen anjomdin. [Навоий, 1988:513]

Shunda ham ziyrak Navoiy may-sharob (ichimlik) ni nazarda tutmagan, balki soqiy-piri komildan ma`rifat ilmini istayotgan lirik qahramonining kechinmalarini tasvirlayapti.

May timsoli Navoiyda hijron azoblaridan qutilish vositasi sifatida ham talqin etiladi. Uning lirik qahramoni eng og`ir hijron (hijron bu yerda keng ma`noda bo`lib, g`urbat tushunchasi ham qo`shilib keladi) daqiqalarida birdan-bir himoyachi sifatida mayga, soqiya murojaat qiladi.

Qani soqiyi gul`uzorim mening,
Ki, jon qasdi etmish xumorim mening .
Firoq ichra ko`p mehnat-u dardu ranj,
Chiqibtur tani xoksorim mening. [Навоий, 1988:517]

Quyidagi baytlar orqali esa Haq jamoliga erishish uchun mayga oshnolik oshiqni asosiy maqsadiga erishishidan dalolat beradi:

Burun zuhdu taqvoni aylab ishor,
Dedim kim, yetishmas safoyi manga.
Borib xonaqoh ichra qildim maqom,
Bu mano xud o`ldi baloyi manga.

Boqib xilvat-u zikr-u sajjodani,
 Zuhr etdi har dam riyoyi manga.
 Bulardin o'zimni xalos ayladim,
 Kiy, tohsil o'lg'ay fanoye manga.
 Xarobot aro kirdim oshufta hol,
 May istarg'a ilgimda singan safol [Навоий, 1988:515]

Demak, lirik qahramon Zuhd-u Taqvoni izhor qilib, Xonaqohga borib, kecha-kunduz ibodat, sajda qilgan. Safoga erishishi uchun qilingan bu maqsad unga balolar va riyo keltiradi. Bundan xalos bo'lish uchun, Fano-yo'qlik olamiga qadam qo'yadi. Omiq uchun Zuhd-begona. Shu bois "May"ga tashnalik, oshnolik Uni maqsadga tomon olib boradi, Baytlardagi "Singan safol"-singan ko'ngil. Buni butun qilish uchun may, ya'ni irfoniy Zuhr istaydi.

Navoiy ijodi xazinasining asosiy mohiyatini uning insonparvarligi tashkil qilib, barcha g'oyalari ana shu maqsad atrofida uyushadi. Bu holatni may mavzusidagi she'rlarida ham yaqqol sezamiz. Navoiyning tarje'bandlarida keltirilgan may obrazining turli xil ma'nolari va mayning turli vositalar sifatida qo'llanilishini ko'rdik. Umuman, Navoiyda may bir necha ma'no kasb etib, lirik qahramonning turlicha kayfiyatini ifoda qilsa-da, baribir, hammasining markazida inson va uning kechinmalari yotadi. Lirik qahramon hijron azoblari va yorning yoki zamondoshlarining jabr-zulmlaridan qutulish uchun may istaydi. Demak, uning may istashining sababchisi ham – lirik qahramonni ana shu holga keltirgan insonlar, ma'shuqa va zamondoshlari, desak adashmaymiz.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Навоий Алишер. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 3-том. Фаройиб ус-сигар .–Т.: Фан, 1988.
2. Навоий Алишер. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 4- том. Наводир уш-шабоб. – Т.: Фан, 1988.
3. Навоий Алишер. Муқаммал асарлар тўплами. 20 томлик. 5-том. Бадоев ул-васат. – Т.: Фан, 1990.
4. Навоий асарлари луғати. – Т.: Адабиёт ва санъат, 1972.
5. Haqqulov I. Tasavvuf va she'riyat. – Т.: Adabiyot va san'at, 1991.

24. Амонова З.	Насимий ва озар адабиёти.....	182
25. Boltabayev S.	O‘zbek matnshunosligida transkripsiya masalasi.....	186
26. Курбонов А.	Бадиий матн ва тасвирий воситалар мутаносиблиги.....	194
27. Абдуллаев А., Абдуллаев М.	“Тарихи яминий” – аждодларимиз кечмишига доир муҳим манба.....	203
28. Ubaydullayev A.	Mumtoz qo‘lyozma asarlar matni ustida ishslash muammolari.....	212
29. Амонов Ш.	Аҳмад Табибийнинг “Хайрату-л-ушшок” девонидаги таржиъандлар ҳақида.....	216
30. Махмудов Ж.	Паҳлавон Маҳмуднинг “Мажолис ул-ушшоқ”даги васфи ёхуд пурёрвалий лақаби баҳси.....	221
31. Джабборов Р.	Алишер Навоийнинг Оққўюнлилар давлати худудидан топилган бир ғазали хусусида.....	227
32. Умурзоқов Б.	Алий Сафий Ҳиравийнинг ижоди ва “Рашаҳоту айни-л-ҳайот” (Ҳаёт булоғидан томган томчилар) асарининг нодир қўлёзмаси - муаллиф дастхати нусхаси ҳақида.....	230
33. Karimova S.	Ka’ba va hijrat mavzusi Zebunnisobegim talqinida.....	238
34. Жумаева Д.	Вариантлиликнинг достонларда учраши.....	243
35. Эшонкулова С.	Основы художественного мировозрение в лирики Нодиры.....	250
36. Hayitov Sh., Qudratova K.	Kotib xazinasidan yodgor qo‘lyozma.....	260
37. Bekova N., Halimova Sh.	Alisher Navoiy tarje‘bandlarida may talqini.....	264
38. Пирназарова М., Матқулиева М.	“Ошиқ ғарип” достонини туркӣ ҳалқлар версиялари билан қиёсий ўрганиш.....	268
39. Ismailov I., Qurban niyozov R.	“Riyuzu-d-davla” asaridagi mumtoz lirik janrlarning vazni masalasi haqida.....	272
40. Karimova F., Odilova X.	Dilorom Ergasheva ijodida mumtoz adabiyot an‘analari.....	276
41. Болтабоеva О.	Хилватийнинг ахлоқий-таълимий шеърлари поэтикаси.....	281
42. Turg‘unov Sh.	O‘zbek xalq o‘lanlarida ramz.....	285
43. Арслонов А.	“Темурнома”ларда архетиплардан фойдаланиш тамойили.....	289
44. Мўминов Б.	Мумтоз матннинг тизимли таҳлили (Алишер Навоийнинг “Топмадим” радифли ғазали).....	293
45. Умарова С.	Суйима Фаниеванинг навоийшуносликда таржимачилик фаолиятига доир.....	299

46. Abdurahmonova S., Rustamova L.	Alisher Navoiyning “Tarixi muluki ajam” asaridagi masnaviylarning badiiy xususiyatlari...	304
47. Мамасолиева М.	Жаҳон Отин Увайсийнинг адабиётимизга маълум бўлмаган шеърлари хусусида.....	308
48. Туропова П.	Анъанавийлик ва ворислик (Жиззах адабий муҳити мисолида).....	313
49. Нуриддинов Ш.	Комил Хоразмий ғазаллари матнига доир айрим мулоҳазалар.....	319
50. Jo’rabyoyeva S.	“Devoni shavqiy”dagi muxammaslar xususida...	327
51. Ҳалимов С.	Шоҳ Ғариб Мирзо (Ғарифий) ижоди ва даври.....	331
52. Gafurova Sh.	XII asr o‘zbek adabiyotida me’roj talqini.....	336
53. Ражабов Ф.	Нурота фольклорининг ўрганиш манбалари (Рахим Қодир тайёrlаган манбалар асосида).....	342
54. Abdurahmonova S., Rustamova L.	Adab ko`ngirasi.....	350
55. Dusanova T.	Alisher Navoiyning “Mahbub ul- qulub “ asarida ruboilyarning badiiy xususiyatlari.....	354
56. G’oyibboyeva R.	Alisher Navoiyning “Tarixi muluki ajam” asarida podshohlar talqini.....	358
57. Йўлдашева С.	Комил инсон тарбиясида Навоий асарларининг ўрни.....	363
58. Abdulhayeva B.	“Farhod va Shirin” dostonida she’riy san’atlarning qo’llanilishi.....	367
59. Abdullayeva M.	«Alpomish» dostonining bugungi yoshlari tarbiyasidagi amaliy ahamiyati.....	370
60. Bahronova Z.	“Sab’ai sayyor” ikki nashridagi I–III boblar matnining qiyosiy tahlili.....	374
61. Celilova D.	Abdullah Гюлшени hayatı ve el yazi mirası.....	378
62. Hakimboyeva K.	Ahmad Yassaviy hikmatlarining matnshunoslikdagi o’rni.....	383
63. Raxmatov N.	Komron Mirzo she’riyatida badiiy tasvir vositalarining rang-barangligi	387
64. Сайдова Ш.	“Фарҳод ва Ширин” достони нашрларидағи айрим тафовутлар ҳақида.....	392
65. Бекмуродзода С.	Хожа Муҳаммад Порсонинг “Фасл ул-хитоб” асари манбалари ҳақида.....	397
66. Abdurahmonova M.	XIX asr oxiri va XX asr boshlarida Qo’qon adabiy muhitida g’azal mushoaralarining o’ziga xosligi.....	401
67. Пармонова С.	Фаридуддин Аттор ва Алишер Навоий ижодида Абдуллоҳ Ибн Муборакнинг зикри.....	405

68. Aktamova Yu.	O‘zbek adabiyotida mutatavval.....	408
69. Saparova M.	Turli davlatlarda aruziy juzvlar o‘rganilishining o‘ziga xosligi.....	417
70. Qarshiyeva Sh.	Bir so‘z mas’uliyati.....	422
71. Mamatvaliyeva D., G’ofurova S.	“Turkiston mulkining shayx ul-mashoyixi”.....	424
72. Mamasoliyeva Z.	Ogahiy g’azallarida tashbeh san’ati.....	427
73. Maxamatvaliyeva T.	Navoiy ijodida iymon masalasi.....	431
74. Холбеков С.	Кўлёзма асарларда постскриптум анъаналари.....	434
75. Boyatov O.	“Oriy manam, manam manam”.....	436
76. Қаюмова Г.	Фузулий издошлари.....	440
77. Adavaliyeva H.	Mulla Shams Shavqiy Namangoniy – serqirra ijodkor.....	444
78. Sodiqov M.	"Majolis un-nafois"ning birinchi majlisida keltirilgan parchalarda matn va she’riy o‘lchov munosabati.....	448

ЎЗБЕК ФИЛОЛОГИЯСИДА МАТНШУНОСЛИК ВА МАНБАШУНОСЛИК МУАММОЛАРИ

Халқаро илмий-амалий анжуман материаллари

Наманган, 2021 йил 19-20 май

1-китоб

11.06.2021 йилда теришга берилди.

15.06.2021 йилда босишига рухсат этилди.

Ҳажми 29 б.т. Офсет усулида босилди. Бичими 60×84₁/16
Times New Roman гарнитураси. Адади: 100 нусха.